



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARNI SAMARADORLIGI

Jo'rayeva Farangiz Ismoil qizi

O'zDJTU, Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Sadiyeva Shahnoza Komilovna

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176496>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda chet tillarini o'qitish uchun qo'llanilayotgan metodikalar, ular o'quvchi va o'qituvchilar uchun qay darajada samaradorlik berayotganligi hamda zamonaviy texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *metod, innovatsiya, texnologiya, xorijiy tillar, Ingliz tili.*

Kirish. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston demokratik davlatga aylandi hamda yurtimizda kattadan katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bu bilan bir qatorda, amalga oshirilayotgan islohatlar soni yildan yilga kerak bo'lsa kundan kunga oshib bormoqda. Albatta, bu islohatlar nafaqat iqtisodiyot, balki, sport, ta'lim kabi mamlakat rivojlanishiga asos bo'la oladigan sohalarda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bilan bir qatorda bo'lishi uchun ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratmoqda va yosh avlod har bir fanni, hattoki, o'zlari istagan xorijiy tillarni o'rganish uchun ham ko'plab imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bundan asosiy maqsad, yoshlarni ko'proq ilm-fanga jalb qilish, bilim saviyasini yuksaltirish, shu bilan bir qatorda, chet tillarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishdan iborat. Chunki ko'p tilni bilish ko'proq samaradorlikka yetaklaydi, jumladan rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik qilish, ulardan o'rgangan yangi innovatsiyalarni mamlakatimizda tadbiiq qilish, o'zaro hamjamiyatlik kabi yo'nalishlarda asosiy rol o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlarning davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun xizmat qildi va bugungi kunga kelib chet tiliga bo'lgan talab judayam ortib borishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida, yurtimizda chet tillarini o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi, ya'ni maktablarda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish talabi oshdi. Chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi yoshlarni maktab davridan boshlab kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Asosiy qism: Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganish yoshlar orasida juda keng tarqalgan va buning natijasida yildan yilga kuchli bilimga ega, yetuk yoshlar, kadrlar soni oshib bormoqda. Bu taraqqiyot yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion - inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'lim, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Metod - metodika tushunchasi grek-lotinch "metodos-"metodus" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor keng ma'nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi.

Chet til - bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelimnoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ushbu maqolada, masalan, ingliz tili misolida o'qitish metodikasi haqida ma'lumot aytib o'tiladi

Ingliz tili sohasida yuksak bilimga ega malakali talabalar va kadrlar sonini toboro oshishining asosiy sababi o'qitish jarayonida tashkil qilinayotgan metodlar hamda uning samaradorligini oshirish uchun foydalanilayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Ingliz tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;
- CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bu usul orqali ingliz tilini an'anaviy metoddan, ya'ni

- Grammatika va tarjima metodi
- Ma'ruza orqali o'qitish metodi
- An'anaviy yodlash va takrorlash metodi usulidan ancha tez, oson va samarali kechadi.

1. Grammatik va tarjima metodi (grammar translation method) ushbu metod, asosan, klassik tillarni (lotin, yunon tilin) o'qitishda qo'llanilgan va ingliz tilini o'rganish jarayoniga moslashtirilgan. Talabalar, asosan, matnlarni tarjima qilish va Grammatik qoidalarni o'rganish va yodlashga e'tibor qaratadi.

2. Ma'ruza orqali o'qitish usulida esa o'qituvchi markaziy figura bo'lib, bilimni uzatish vazifasini bajaradi. Talabaning ishtiroki minimal bo'ladi, ya'ni "teacher dominant interaction". Ingliz olimlari ta'rifiga ko'ra bu metod "jug and mug" (ko'za va payola iborasi orqali ifodalanadi. Bu metod o'qituvchi Boshqaruvi ostida bo'ladi va unda ma'suliyat talab qiladi

3. An'anaviy yodlash va takrorlash. Bu metod muloqatga yo'naltirilgan yondashuvlardan iborat bo'lib, grammatik qoidalar va yangi so'zlarni ko'p bora takrorlash va yodlash orqali o'zlashtiriladi. Nu metodlarning afzalliklari tomonidan grammatikaning mukammal o'zlashtirilishi va aniq tuzilmalarga amal qilishini ta'minlaydi.

Qisqacha qilib aytganda, yuqorida keltirilgan 3ta an'anaviy usul orqali o'quvchini o'qitish jarayoni nisbatan zerikarli, effektivlik darajasi pastroq va uzoqroq muddat talab qilishi mumkin. Ammo axborot qurilmalaridan foydalangan holda asosiy kompetetsiyalar (o'qib tushinish, tinglab tushinish,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

gapirish , nutq jarayonini ravon qilish kabi) ni rivojlantirish hamda turli xil o'yinlar (quize , kahoot va h. k) ni tashkil qilish jarayoni tez amalga oshiriladi va o'quvchi va o'qituvchini darsga bo'lgan qiziqishga ham katta ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, Chet tili o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet tili bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Bu esa o'qituvchini psixologik qobiliyatini ham talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitish va o'rganish eng keng tarqalgan bo'lib, uni o'qitish uchun eng zamonaviy metodlardan , innovatsion usullardan foydalanish o'quvchi va o'qituvchilarni fikrlash doirasini kengaytirishga hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Eng zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar uchun nutq foaliyatini oshirishda , tinglab tushinish qobiliyatini rivojlantirishda , tez javob berish malakasini oshirishda yordam beradi. Chet tilini o'qitishda ona tili bilan taqqoslagan holda o'rgatish, turli xil o'yinlardan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Chunki bunday o'yinlardan foydalanilish natijasida o'quvchi fanga puxta tayyorlanish uchun harakat qiladi. Bundan tashqari , chet tilini o'qitish psixologik ko'nikmalarni, ya'ni o'qituvchi o'quvchini psixologik holatini tushunishni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2012-yil dekabrda qonuni
2. Kushiyeva Nodira Xabibjonovna. Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar: onlayn platformalarning roli. "Xorijiy tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. 2012
4. Sanaqulov Zayniddin . "Chet tili o'qitishda zamonaviy metodikasida zamonaviy metodlar"
5. <https://moluch.ru/archive/138/39058/>